



## INKLUZIV TALIMGA MUXTOJ BOLALAR PSIXOLOGIYASI

*Ziyodullayeva Sarvinoz Shamsiddin qizi*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*O`qituvchisi*

*Avazova Surayyo Xurramovna*

*Kasbi tuman 13-umumiy o`rta ta`lim maktabi*

*boshlang`ich sinfo `qituvchisi*

### ANONTATSIYA

Ushbu maqolamizda aqli zaif bolalar ta`lim tarbiyasi ularning psixaloyiyasi va kirishuvchanliokgi insonlar bilan muloqotga kirishishida qanday to`siq kamchiliklarga duch keladigan muammolarni ko`rib chiqamiz.

**Kalit so`zlar:** Aqli zaif bola, tafakkur, didaktik o`yinlar , metod inklyuzif ta`lim , psixika , pedagog.

### ANNOTATION

In this article, we will consider the psychology of the education of children with mental retardation and the obstacles they face in communicating with people.

**Key words:** Mentally retarded child, thinking, didactic games, inclusive education method, psychology, pedagogue.

### ANNOTATION

In this article, we will consider the problems that the education of mentally retarded children faces in terms of their psychology and the difficulties they face in communicating with people of similar abilities.

**Key words:** Mentally retarded child, thinking, didactic games, inclusive education method, psychology, pedagogue.



Hozirgi paytda aqli zaif bolalarga muloqotga kirish vazifasi kichik guruhdan boshlab qo'yilmoqda. Bolalar savoliga qisqa va kengroq javob berishga shoshilmay atrofdagilarga tushunarli qilib keraklicha baland ovoz bilan o'z fikrini bayon yetishga o'rgatilmoqda. Bolalarda bir-birining javobini e'tiborli va diqqat bilan tinglash o'zaro to'ldirish va tuzatish kabi qobilyatlar tarbiyalanadi. Ular kichik guruhdagi yakka -yakka so'zlashishdan tashkiliy jamoa muomilaga bir so'zli va umumiy javoblardan atrofdagilargi tushunarli bo'lgan qisqa va yoyiq shakilda mazmunli javob berishga o'tadilar. Ushbu vazifani hal etishda bolalardan mantiqiy tafakkurlash jarayonlari analiz sentez umumlashtirish taqqoslashning yetarlicha yuqori darajada bo'lishini talab qilinadi. Chunki aqli zaif bolalr sog'lom bolaga nisbatan o'zini tortib turadi bunday holatda pedagogning mahoratiga e'tibor qaratamiz. Aqlida o'zgarishi bor bolalar sog'lom bolalar bilan bir sinfda taqsil oladigan bo'lsa, ularni har bir vazifasiga e'tiborda bo'lish lozim. Unday bolalar bilan individual ishslash kerak. tengdoshlariga nisbatan aqliy hujum metodini ularda ko'proq amalga oshirish shart. Avvalo aqlida, ruhiyatida o'zgarishi bor bolalar sog'lom nolalar bilan ta'lim olishi mumkin emas. Holati o'ta kuchli bo'lsa albatta ular inklyuzif yo'naliishida ta'lim olishlarini maslahat beramiz.

Aqliy yetishmovchiligi bor bolalar uchun atrof-muhitdagi narsalar va voqealar o'rtasidagi aloqa bog'liqlik belgilay olmaslikka analiz va sentiz qilishga qobiliyat yo'qligida ifodalanadi. Aqli zaif bolaning tafakkuri yaqqol-obrazli situation xarakterda bo'ladi va o'zga xos xususiyatga ega bo'ladi. Pedagog aqli zaif bola nutqiga ta'sir ko'rsatishda xilma xil yo'laridan foydalanadilar. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar o'yin vaqtlarida kun tartibidagi vazifalarni hal qilish jarayonida o'yinchoqlarini ko'rishj jarayonida muloqotga kirishga harakat qiladilar. Peadagog ularni ovqat vaqtida sekin, tartibli, so'zlashga o'rgatadi, og'zida ovqat bilan hech qachon so'zlamaslikga uqittiradi. Maktabgacha yoshdagi



aqli zaif bolalarni muloqotga kirishishda oila , bog'cha , do'konda keyinroq esa maktab kabi rolli uyinlar katta ahamiyatga ega bo'ladi . oilada bolaga niosbatan aqli zaiflik sezildimi uni psixolog doktorlar qabuliga ko'rsatishi lozim . Aqliy zaiflikni tuzatib bo'lmas darajalari yokida tug'ma , ortirilgan bo'lishi mumkin. Bunday tartibda bolalar bilan nafaqat ta'lim jarayoni balkida tarbiya jarayonini ham also e'tibordan chetta qoldirmaslik kerak . Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan muloqot jarayonlari ko'proq uning bevosita kuzatishlari bilan bog'langan bo'lishi lozim. 4-5 yoshli bolalar bilan muloqotga kirishish juda aniq ularga yaxshi tanish bo'lgan buyum va hodisalar haqida bo'lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar didaktik o'yinda o'yin qoidasiga rioxalish orqali aniq vazifani bajarishga harakat qiladilar. O'yin vazifasin bajarish uchun boladan o'z diqqatini bir yerga toplash, kuzatuvchanlik, esda qoldirish kabi faol aqliy faoliyat talab qilinadi. Didaktik o'yinlar asosida aqli zaif bolalarning jismoniy va psixik nuqsonlari to'g'rilib boriladi hamda bilish faoliyatlari shakllantiriladi. Didaktik o'yinlar orqali bolalar atrof-muhitni to'g'ri tushunib, anglay boshlaydi. Bolalarga beriladigan didaktik o'yinlar ularning atrof-muhitdan olgan taassurotlarini, tushunchalarini mustahkamlash va chuqur anglashga yordam beradi. Monolog tarzda gapirish me'yorda rivojlanayotgan bolalarda 5 yoshda paydo bo'ladi. Bu davrda bolada mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi, ko'proq so'z boyligi yig'iladi, u ona tilining grammatik tuzilishi asoslarini o'zlashtiradi. 7 yoshda bolalar og'zaki nutqning asosiy shakllarini, ya'ni dialogik tarzda so'zlash va monologik tarzda so'zlashni egallagan bo'ladilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aqli zaif bolalarda dastlabki so'zlearning kechikib hosil bo'lishi (dastlabki so'zlar 3-4 va hatto 5 yoshlarda paydo bo'ladi), so'z birikmalarini egallah davrining sekin va qiyinchilik bilan kechishi, so'zlardan gaplarni tuzish uzoq vaqt talab etilishi, nutqiy ijodiyotda mustaqillikning yetishmasligi, nutqiy faollik darajasining pastligi, nutqiy muloqot kambag'alligi kuzatiladi.



## Aqli zaif bolalar bilan ishlashda pedagog vazifasi

- Umum ta’lim maktablarda o’qiyotgan aqli zaif bolalarni bilish faoliyati bilan sog’lom bolalar biolish faoliyatini farqlay bilish lozim.
- Sog’lom bolaga qo’yilgan o’quv dasturi talabini aqli zaif bolaga qo’llamaslik .
- Darsa jarayonlarida aqli zaif bolalarni o’zlashtirish qobiliyatiga mos keladigan vazifalar berib borish lozim
- Bolani darslani o’zlashtirmasligi uchun o’quvchilar o’rtasidan izza qilmasdan balki uning ayrim yutuqlarini hisobga olib rag’batlantirib choralarini ko’rish lozim
- Umumiy aqli zaif bolalarni umum ta’lim maktablarida o’qitish ishlarini o’qituvchi oldida ancha murakkab muammolarini keltirib chiqaradi bu o’rinda pedagoglarimiz ularning ota onalari bilan hamkorlikda ish olib borishi , bolalarni harakter hususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan dars jarayonida ish olib borish muhim ahamiyatdir.

Nuqsonlio bolalarni hayotda o’z o’rnini topishi kelajakda o’z mehnati evaziga hayot kechirish ko’nikmasiga ega bo’lish pedagoklarimizning oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuzif ta’limga jalb qilish respublikamizning ayrim viloyatlarida jumladan Farg’ona , Andijon , Xorazm , Toshkent viloyatida tajriba sinov ishlari boshlangan bo’lib , bu ishlarni amalga oshirishda no davlat jamoalar horijiy tashkilotlar tashabbus ko’rsatmoqda .

## XULOSA

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkunki: aqli zaif bolalar nutqini o’rganish dolzarb masalalardan biridir. Bolalarda nutqning o’sishiga yordam beradigan



vositalarni yoki uni orqada qolish sababini aniqlash bu jarayonga muvofiq pedagogik ta'sirni tashkil etishning kaliti bo'lib xizmat qiladi. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarining oldida bolalar nutqini o'stirish vazifasi turadi. Bunda aqli zaif bolalarga o'z fikrini, istak—orzusini, hissiyotini aniq ifoda etish, ona tilida kishilar bilan aloqa o'rnatishda, hayotga o'rgatish jarayonida foydalanishga o'rgatish, aqliy jihatdan kamchililarni bartaraf etish, ijtimoiy hayotga moslashtirish, hamda yordamchi maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamedov Q, SHoumarov G. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Toshkent, 1994-yil
2. Hamidova M. Aqli zaif bolalarda so'z boyligini oshirishning korreksion - pedagogik asoslar
3. Shomaxmudova R. Sh. Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish.-T 1994-yil